

KONSTITUTSIYA-ERKIN VA FARAVON HAYOT GAROVI

Ro‘zimatov Kamronbek Sherzodivich

“TIQXMMI” Milliy tadqiqot universiteti

“Ekologiya va huquq” fakulteti 1-bosqich talabasi

Omonova Navruzoy

“TIQXMMI” Milliy tadqiqot universiteti “Ekologiya va huquq” kafedrasi stejer-o‘qituvchisi.

Annotatsiya: O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi bu bizning davlatimizning asosiy va eng muhim hujjati hisoblanadi. Ushbu maqolada Konstitutsiyaning jamiyat va davlat hayotidagi o‘rni va uning inson huquqlari va erkinliklarini ta‘minlashdagi asosiy vazifalari tahlil qilinadi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida fuqarolarning quyidagi burchlari ko‘rsatilgan: fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga rioya etishga, boshqa kishilarning huquqlari, erkinliklari, sha‘ni va qadrqimmatini hurmat qilishga; O‘zbekiston xalqining tarixiy, ma‘naviy va madaniy merosini avaylab asrashga; atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lishga; qonun bilan belgilangan soliqlar va mahalliy yig‘imlarni to‘lashga majburdirlar. O‘zbekiston Respublikasini himoya qilish — O‘zbekiston Respublikasi har bir fuqarosining burchidir. Fuqarolar qonunda belgilangan tartibda harbiy yoki muqobil xizmatni o‘tashga majburdirlar..

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, suverenitet, konstitutsiyaviy tuzumi, demokratik huquqiy davlat, hududiy yaxlitlik, himoya qilish

THE CONSTITUTION IS THE GUARANTEE OF A FREE AND PROSPEROUS LIFE

Abstract: The Constitution of the Republic of Uzbekistan is the main and most important document of our state. This article analyzes the role of the Constitution in the life of society and the state and its main tasks in ensuring human rights and freedoms. The Constitution of the Republic of Uzbekistan sets out the following duties of citizens: citizens are obliged to comply with the Constitution and laws, respect the rights, freedoms, honor and dignity of other people; to carefully preserve the historical, spiritual and cultural heritage of the people of Uzbekistan; to be careful about the environment; to pay taxes and local fees established by law. Protecting the Republic of Uzbekistan is the duty of every citizen of the Republic of Uzbekistan. Citizens are obliged to perform military or alternative service in accordance with the procedure established by law.

Keywords: Constitution of the Republic of Uzbekistan, Constitution, sovereignty, constitutional system of the Republic of Uzbekistan, democratic rule of law, territorial integrity, protection



КОНСТИТУЦИЯ ЯВЛЯЕТСЯ ГАРАНТИЕЙ СВОБОДНОЙ И БЛАГОПОЛУЧНОЙ ЖИЗНИ

Аннотация: Конституция Республики Узбекистан является основным и важнейшим документом нашего государства. В данной статье анализируется роль Конституции в жизни общества и государства и её основные задачи по обеспечению прав и свобод человека. Конституция Республики Узбекистан устанавливает следующие обязанности граждан: граждане обязаны соблюдать Конституцию и законы, уважать права, свободы, честь и достоинство других людей; бережно относиться к исторической, духовной и культурной культуре народа Узбекистана; бережно относиться к окружающей среде; платить налоги и местные сборы, установленные законом. Защита Республики Узбекистан является долгом каждого гражданина Республики Узбекистан. Граждане обязаны нести военную или альтернативную службу в порядке, установленном законом.

Ключевые слова: Конституция Республики Узбекистан, Конституция, суверенитет, конституционный строй Республики Узбекистан, демократическое правовое государство, территориальная целостность, защита

KIRISH



Mamlakatimizni rivojlantirishning beshta ustuvor yoʻnalishi boʻyicha Harakatlar strategiyasi doirasida oʻtgan davr mobaynida davlat va jamiyat hayotining barcha sohalari tubdan isloh qilindi. Jamiyat va davlat qurilishi tizimini takomillashtirish, qonun ustuvorligini va inson huquqlarini taʼminlash, iqtisodiyotni liberallashtirish, ijtimoiy sohani rivojlantirish, aholi turmush darajasini yaxshilash, davlat organlarining hisobdorligi va ochiqqligini kuchaytirish hamda fuqarolik jamiyati institutlarining rolini oshirish boʻyicha tizimli ishlar amalga oshirildi. Mazkur islohatlar natijasida mamlakatimizda Yangi Oʻzbekiston barpo etishning zarur siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-iqtisodiy va ilmiy-maʼrifiy asoslari yaratildi. Ushbu takliflar Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning lavozimiga kirishish marosimidagi nutqi va Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 29 yilligiga bagʻishlangan bayram tabrigida ham oʻz aksini topgan edi. Konstitutsiyaning inson qadrini yuksaltirishga oid bir nechta moddalarni oʻz ichiga oladi. Bunga misol qilishimiz mumkin Oʻzbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 26-moddasini koʻrsatishimiz mumkin.

26-modda.

Insonning shaʼni va qadr-qimmatini daxlsizdir. Hech narsa ularni kamsitish uchun asos boʻlishi mumkin emas.

Hech kim qiynoqqa solinishi, zoʻravonlikka, boshqa shafqatsiz, gʻayriinsoniy yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi muomalaga yoxud jazoga duchor etilishi mumkin emas.



Bu moddadan tashqari yana bir nechta moddalarni sanab o'tsak bo'ladi ular quyidagilar kiradi; 25,26,27,28,29,30,31,32,33,34,35-moddalar shular jumlasiga kiradi. Bundan tashqari Konstitutsiya nafaqat inson qadrini shuningdek, kuchli fuqarolik jamiyatini qurishga va adolat tamoyillarini qaror toptirishga xizmat qilishi jamiyatning eng katta ehtiyoji ekanini ko'rsatishimiz mumkin. Bunga misol qilib aytishimiz mumkinki, Konstitutsiyamizning uchinchi bo'limini ya'ni Jamiyat va shaxs bo'limini ham hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2021-2025-yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasini ham misol qilsak bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2021 — 2025-yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" 2021-yil 4-martdagi PF-6181-son Farmoniga muvofiq: 2021 — 2025-yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi hamda maqsadli ko'rsatkichlari tasdiqlanganligi.

Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasini 2023 va 2024-yillarda amalga oshirish bo'yicha "yo'l xaritasi" ilovaga muvofiq tasdiqlansin:

fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning huquqiy asoslarini izchil takomillashtirish;

fuqarolik jamiyati institutlariga ko'maklashish hamda ularni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmini yanada takomillashtirish;

davlat va jamiyat boshqaruvida fuqarolik jamiyati institutlarining faol ishtirok etishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish;

davlat ijtimoiy loyihalarini amalga oshirishda fuqarolik jamiyati institutlarining ishtirokini yanada kengaytirish;

fuqarolik jamiyati institutlari faoliyating ochiqligini ta'minlash.

O'zbekiston Konstitutsiyasi shaxsiy, siyosiy va iqtisodiy huquq va erkinliklarni kafolatlaydi. Shaxsiy huquqlarga hayot, erkinlik, sha'ni, qadr-qimmat, mulk, turar joy daxlsizligi, jinoiy ta'qibdan himoya kabi huquqlar kiradi. Siyosiy huquqlar fuqarolarning davlatni boshqarishda ishtirok etishini, so'z, fikr, e'tiqod erkinligini, tinch yig'inlar uyushtirish huquqini ta'minlaydi. Iqtisodiy huquqlar esa mehnat qilish, tadbirkorlik bilan shug'ullanish, mulkdor bo'lish, soliq to'lashdan ozod bo'lish kabi huquqlarni o'z ichiga oladi.

Shaxsiy huquq va erkinliklar 25-35-moddalar

- Har bir insonning yashash huquqi
- Insonning sha'ni va qadr-qimmatini daxlsizdir
- Har kim erkin va shaxsiy daxlsizlik huquqiga ega
- Aybsizlik prezumsiyasi

Siyosiy huquq va erkinliklar 36-40-moddalar

- **Davlatni boshqarishda ishtirok:** Fuqarolar davlatni boshqarishda to'g'ridan-to'g'ri yoki o'z saylovda saylangan vakillari orqali ishtirok etish huquqiga ega
- **So'z, fikr va e'tiqod erkinligi:** Har bir inson so'z, fikr va e'tiqod erkinligi huquqiga ega
- **Tinch yig'inlar uyushtirish:** Fuqarolar tinch yig'inlar, mitinglar va namoyishlar uyushtirish huquqiga ega





➤ **Birlashmalarga uyushish:** Fuqarolar kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar va boshqa birlashmalarga uyushish huquqiga ega

Iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ekologik huquq va erkinliklar

(41-53-moddalar)

- Har bir shaxs mulkdor bo'lishga haqli
- Har kim erkin mehnat qilish
- Ishsizlikdan himoya qilish
- Majburiy mehnat taqiqlanadi
- Har kim uy-joyli bo'lish
- Malakali tibbiy xizmatdan foydalanish
- Bepul ta'lim olish va boshqa huquqlarga egadirlar.

O'zbekiston Respublikasida Konstitutsiyaning asosiy o'rnini

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi erkin va farovon hayotni ta'minlash uchun asosiy huquqiy poydevor yaratadi. U mamlakatning huquqiy tizimida mustahkam asos bo'lib, inson huquqlari, erkinliklar va adolat prinsiplarini o'zida mujassamlashtirgan. Konstitutsiya erkin va farovon hayot garovi sifatida erkinlikni ta'minlash uchun qanday iqtisodiy va ijtimoiy choralarni ko'rish kerakligi, bozor iqtisodiyotini rivojlantirish, xususiylashtirish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, investitsiyalarni jalb qilish, korrupsiya bilan kurashish, aholining turmush darajasini oshirish kabi masalalar tadqiq qilingan bularga quyidagilar kiradi;

- **Asosiy g'oyalar:** Erkin va farovon hayotni ta'minlash uchun iqtisodiy rivojlanish zarur.
- **Asosiy maqsadi:** O'zbekistonning erkin va farovon jamiyatga o'tish yo'lidagi iqtisodiy va ijtimoiy muammolarini tahlil qilish va ularga yechimlar taklif qilish.
- **Asosiy mavzular:** Bozor iqtisodiyoti, tadbirkorlik, investitsiyalar, korrupsiya, aholi turmush darajasi.

Konstitutsiya erkin va farovon hayot garovi sifatida quyidagilarni ham o'z ichiga oladi;

- **Ijtimoiy himoya:** Konstitutsiya, ijtimoiy himoya tizimini ta'minlaydi. O'zbekiston Respublikasida Konstitutsiyaga binoan, aholining barcha qatlamlarini ijtimoiy himoya qilish uchun davlat tomonidan maxsus chora-tadbirlar belgilangan. Bu o'z navbatida, fuqarolarning hayot darajasini oshirishga, farovonlikni mustahkamlashga yordam beradi.
- **Tenglik:** Konstitutsiya barcha fuqarolarning teng huquqli ekanligini ta'kidlaydi. Har qanday siyosiy, diniy, irqiy va milliy ajratishlarga garshi qat'iy pozitsiya belgilaydi. O'z navbatida, bu ijtimoiy farovonlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi, chunki jamiyatdagi tenglik odamlar o'rtasida kelishuv va tinchlikni ta'minlaydi.
- **Siyosiy erkinlik:** Konstitutsiya fuqarolarning siyosiy erkinliklarini kafolatlaydi, ya'ni, saylovda qatnashish, o'z fikrini erkin ifodalash, siyosiy partiyalarni tuzish, mitinglar va namoyishlar va majlisda gatlashish kabi erkinliklar





ta'minlanadi. Bu, o'z navbatida, jamiyatda erkin raqobatni yaratadi va fuqarolarga davlat boshqaruvida ishtirok etish imkoniyatini beradi.

Milliy xavfsizlik va tashqi siyosat aloqadorligi

Davlat tuzilmasi va davlat chegaralari daxlsizligini ishonchli himoya qilish, inson huquqlari va erkinliklariga og'ishmay rioya etish, jamiyatdagi millatlararo totuvlik, diniy bag'rikenglik, tinchlik va osoyishtalik — demokratik huquqiy davlat qurishning hamda mamlakatni jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning muhim shartlaridan hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik xizmati mamlakatning konstitutsiyaviy tuzumi, suvereniteti, hududiy yaxlitligi, iqtisodiy va mudofaa salohiyatini tashqi va ichki tahdidlardan himoya qilish tizimida alohida o'rin tutadi. O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumi, suvereniteti, hududiy yaxlitligi va manfaatlarini tashqi va ichki tahdidlardan himoya qilish borasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish maqsadida, shuningdek, 2017 — 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi vazifalariga muvofiq:

1. O'zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik xizmati O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati sifatida qayta tashkil etilsin. O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumi, suvereniteti, hududiy yaxlitligi va manfaatlarini tashqi va ichki tahdidlardan himoya qiluvchi maxsus vakolatli organ etib belgilansin.

2. O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati faoliyatini tashkil etishning ustuvor yo'nalishlari etib quyidagilar belgilansin: Xizmatning maxsus vakolatli davlat xavfsizlik organi sifatidagi huquqiy maqomi, vakolatlari va faoliyat yo'nalishlarini aniq belgilab beruvchi mustahkam qonunchilik bazasini yaratish; bugungi kundagi xavf-xatarlar va tahdidlarga qarshi kurashishning ta'sirchan shakl hamda uslublarini joriy etish; yuzaga kelayotgan ijtimoiy-siyosiy va sotsial-iqtisodiy vaziyatni inobatga olgan holda davlat xavfsizligini ta'minlash borasidagi vazifalarni bajarishda mavjud kuch hamda vositalardan samarali foydalanish imkonini beruvchi tashkiliy tuzilmani shakllantirish; fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga og'ishmay rioya etilishini kafolatlaydigan ta'sirchan mexanizmlarni joriy qilish; O'zbekiston Respublikasining manfaatlarini munosib himoya qilishga qodir, har tomonlama yetuk va vatanparvar yoshlarni Xizmatga jalb etishga qaratilgan kadrlarni tanlash va tayyorlashning mutlaqo yangi tizimini yaratish; mehnatga munosib haq to'lash, uy-joy va maishiy shart-sharoitlarni yaxshilash, sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirish orqali Xizmat harbiy xizmatchilarining ijtimoiy himoyasini kuchaytirish.

3. Xizmatning asosiy vazifalari va faoliyat yo'nalishlari etib quyidagilar belgilansin: O'zbekiston Respublikasining davlat xavfsizligi va manfaatlarini tashqi va ichki tahdidlardan himoya qilishni ta'minlash, mazkur sohada qonuniylik va qonun ustuvorligini mustahkamlash, huquqbuzarliklarning oldini olish, ularni aniqlash va ularga barham berish; O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumi,





suvereniteti va hududiy yaxlitligiga tajovuzlarning oldini olish, ularni aniqlash hamda ularga barham berish bo'yicha razvedka va kontrrazvedka faoliyatini amalga oshirish; O'zbekiston Respublikasining Davlat chegaralarini qo'riqlash va himoya qilish; O'zbekiston Respublikasining Qurolli Kuchlari va mudofaa-sanoat majmuasini davlat xavfsizligiga xavf-xatarlar hamda tahdidlardan himoya qilish, mamlakat mudofaa qobiliyatini mustahkamlash bo'yicha strategik tashabbuslarni amalga oshirishda ishtirok etish; terrorizm, ekstremizm, uyushgan jinoyatchilikka, qurol-yarog', giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy muomalasiga qarshi kurashish; davlat manfaatlari va xavfsizligiga tahdid soluvchi milliy, irqiy va diniy adovatni targ'ib etishga qaratilgan buzg'unchilik faoliyatining oldini olish, uni aniqlash va unga barham berish; iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, ijtimoiy va axborot sohalarida davlat xavfsizligini ta'minlash, O'zbekiston Respublikasi xalqining tarixiy-madaniy va boy ma'naviy merosini himoya qilish; davlat organlari va boshqa tashkilotlarda davlat manfaatlari va xavfsizligiga tahdid soluvchi korrupsiya holatlariga qarshi kurashish; telekommunikatsiya va transport sohasida davlat xavfsizligini ta'minlash, favqulodda holatlarni yuzaga keltiruvchi omillarning oldini olish, aniqlash va ularga barham berish; Xizmat tergov qilish vakolatiga kiruvchi jinoyat ishlari bo'yicha tergovga qadar tekshiruv va dastlabki tergov olib borish va tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshirish; Xizmatning jangovar va safarbarlik tayyorgarligi holatini takomillashtirish va saqlab turish, kuch va vositalarni favqulodda vaziyatlar yuzaga kelgan hamda harbiy holat joriy qilingandagi harakatlarga tayyorlash ishlarini amalga oshirishga qaratilgan.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni ayta olamizki, bugungi har tomonlama rivojlanib borayotgan davlatimizda bu Konstitutsiya erkin va faravon hayot garovi sifatida ancha rivojlanib boryatganini ko'rishimiz mumkin. Bu mamlakatda erkin va faravon hayotning kafolati sifatida va jamiyatda tinchlikni ta'minlashga xizmat qiladi nafaqat bularga bu fuqarolarning huquq va erkinliklari, qadriyatlar va tamoyillarni ta'minlashda ham katta ahamiyatga ega. Konstitutsiya mamlakatda amalga oshirilayotgan siyosiy va iqtisodiy islohatlardir va bu davlatning suverentiteti va hududiy yaxlitligini saqlash va himoya qilish bo'yicha siyosat olib boradi. Shuningdek, fuqarolarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, madaniy va ekologik huquqlarini ham Konstitutsiyamizda yoritib berishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. - Toshkent: "O'zbekiston", 2023.
2. A.X.Saidov, M.X.Rustambayev, O.Xusanov va boshqalar, /Konstitutsiyaviy huquq: Darslik. Toshkent: Complex Print, 2019. - 792 b.
3. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining qo'shma qarori, 20.05.2022 yildagi 2122-IV-son



4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 06.05.2023 yildagi 192-son
5. Islomov, T. (2017). Erkin va farovon hayot kafolati sifatida O'zbekiston Konstitutsiyasi. Toshkent: O'zbekiston davlat pedagogika universiteti.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 14.03.2018 yildagi PF-5379-son

